



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 254 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики	137
<i>Каримбаев Ниятбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	
Инклюзивное образование в Республике Узбекистан: сравнение с мировым опытом	144
<i>Пирманова Бахора Эшмухаммадовна</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyati	148
<i>Olimova Sarvara Sobitxon qizi</i>	
Bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari	152
<i>M. B. Muxtorova</i>	
Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bolalarni talaffuzga o'rgatish metodlari	156
<i>Bo'ronova Suksoraxon Behzodjon qizi</i>	
The Role of Identity, Motivation, and Investment in Teaching English at School (Experimental Study)	160
<i>Shahobova Sitara Baxromovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining zamonaviy ta'lim paradigmasiga mos pedagogik modeli	166
<i>Olimova Dilrabo Nurali qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida tikuvchilik va dizayn ta'limida innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari	169
<i>Umarova Fotima Abduraximovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishning interaktiv metodlari	172
<i>Kosimova Gullola Mullajonovna</i>	
Iqtisodiy ixtisoslik talabalari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: rus tili fanini o'qitishda	176
<i>Nuraliyeva Maftuna G'ulomovna</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish bosqichlari	182
<i>Xidirova Nodira Abduganiyevna</i>	
Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogning kompetensiyasi	185
<i>Eshmuratova Gauxar Maxsudovna</i>	
Frazeologik birliklar identifikatsiyasi	188
<i>Omadjon Azamov Burxonovich</i>	

O'smirlik davrida empatiya rivojlanishiga ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqotning ta'siri	192
Qodirova Zebuniso Malikovna	
Pedagogical Mechanisms for Enhancing the Competitiveness of Higher Education Services in the Context of Socio-Economic Globalization	197
Babayeva Lola Ibragimovna	
Integrativ yondashuv asosida talaba qizlarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishning dolzarbligi	202
M. X. To'xtamisheva	
Murakkab nuqsonli bolalarni umumta'lim maktablariga tayyorlash jarayonida logopedning kommunikativ malakasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.....	207
Abdubokiyeva Adiba Baxodir qizi	
Oliy ta'limda mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirib tashkil etish	211
Adashova Guljaxon Muxammadjonovna	
STEAM yondashuvi asosida tayyorlov guruh bolalarining bilish faoliyatini faollashtirishning samarali yo'llari	215
G. B. Maxmudova	
Bo'lajak oligofreno-pedagoglarning kompetentlik faoliyatini tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	219
Jumaboyev Nurillo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt asosida ta'lim sifatini monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish	223
Jumanazarova G. U.	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda duduqlanishni o'yin asosida bartaraf etish texnologiyalari	227
Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna, Mamatqulova Sarbarxon Axmadjon qizi	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	230
Kayumova Nargiza Mirziyatrovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi	
Sharq va G'arb mutafakkirlari merosida shaxs tarbiyasi masalalari	233
Mirabzalova Zaxro Shuhrat qizi	
Oliy ta'limda talabalarning o'z-o'zini personallashtirishini tashkil qilish	238
Shamsiddinova Adiba Muzaffar qizi	
Формирование интеллектуальных умений детей старшего дошкольного возраста в условиях цифровой образовательной среды	242
Скрыльников Юрий Степанович	
Динамика становления профессионально значимых личностных качеств будущих педагогов.....	246
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Hamid Olimjon ijodining shakllanishidagi manbalar va ijodiy omillar.....	250
U. A. Jumanazarov	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINI ZAMONAVIY DARSLIKlardan SAMARALI FOYDALANISHGA O'RGATISHNING INTERAKTIV METODLARI

Kosimova Gullola Mullajonovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishning interaktiv metodlari ilmiy-metodik jihatdan tahlil etiladi. Unda ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, faol va interaktiv usullardan samarali foydalanish hamda o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik vositalarning ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy darsliklar bilan ishlash jarayonida "Aqliy hujum", "Klaster", "B-B-B", "Insert", "Keys-stadi", "Rol o'ynash", "Loyiha metodi" kabi metodlarning didaktik imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, o'qituvchilarning metodik mahoratini oshirish, dars samaradorligini ta'minlash hamda o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish masalalari ilmiy asosda bayon etilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim jarayonida zamonaviy darsliklardan samarali foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy darslik, interaktiv metodlar, boshlang'ich ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion texnologiyalar, metodik mahorat, faol ta'lim, dars samaradorligi, pedagogik texnologiya, mustaqil fikrlash.

Abstract: The article provides a scientific and methodological analysis of interactive teaching methods aimed at developing primary school teachers' skills in the effective use of modern textbooks. It examines innovative approaches in the educational process, active and interactive teaching methods, and methodological tools designed to enhance students' competencies. The didactic potential of such methods as "Brainstorming," "Cluster," "B-B-B," "Insert," "Case Study," "Role Play," and "Project Method" in working with modern textbooks is highlighted. The study also addresses issues related to improving teachers' methodological competence, ensuring lesson effectiveness, and fostering students' independent and creative thinking. The research findings contribute to improving the quality of primary education through the effective use of modern textbooks.

Key words: modern textbook, interactive methods, primary education, competency-based approach, innovative technologies, methodological competence, active learning, lesson effectiveness, pedagogical technology, independent thinking.

Аннотация: В статье научно-методически анализируются интерактивные методы обучения, направленные на формирование у учителей начальных классов навыков эффективного использования современных учебников. Рассматриваются инновационные подходы в образовательном процессе, активные и интерактивные методы обучения, а также методические средства, способствующие развитию компетенций учащихся. Раскрываются дидактические возможности методов "Мозговой штурм", "Кластер", "Б-Б-Б", "Insert", "Кейс-стади", "Ролевая игра", "Метод проекта" при работе с современными учебниками. Особое внимание уделяется вопросам повышения методического мастерства учителя, обеспечения эффективности урока и развития самостоятельного и творческого мышления учащихся. Результаты исследования способствуют повышению качества образования в начальной школе на основе эффективного использования современных учебников.

Ключевые слова: современный учебник, интерактивные методы, начальное образование, компетентностный подход, инновационные технологии, методическое мастерство, активное обучение, эффективность урока, педагогическая технология, самостоятельное мышление.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli texnologiyalar hamda innovatsion metodlarning jadal rivojlanishi boshlang'ich ta'lim jarayonini yangicha mazmun va shaklda tashkil etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, zamonaviy darsliklarning ta'lim amaliyotiga keng joriy etilishi o'qituvchilardan ilg'or pedagogik yondashuvlarni samarali qo'llashni, metodik tafakkurni kengaytirishni hamda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishni talab qiladi.



Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishda interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv metodlar o'qituvchilarning darslik mazmunini chuqur anglashiga, uni amaliyotda samarali qo'llashiga hamda o'quv jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi. Natijada ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi va o'quvchilarning mustaqil, tanqidiy hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi.

Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishning interaktiv metodlarini ilmiy asosda ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayoni.

Tadqiqot predmeti

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida zamonaviy darsliklardan samarali foydalanish kompetensiyasini shakllantirish jarayoni hamda uning interaktiv metodik asoslari.

Tadqiqot maqsadi

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida zamonaviy darsliklardan samarali foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interaktiv metodlarning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini aniqlash hamda ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining zamonaviy darsliklardan foydalanish kompetensiyasining mazmun-mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish.
2. Mazkur kompetensiyani shakllantirishga ta'sir etuvchi pedagogik va tashkiliy omillarni aniqlash hamda tizimlashtirish.
3. Interaktiv metodlar asosida zamonaviy darsliklar yordamida o'quv jarayonini samarali tashkil etish metodikasini ishlab chiqish.
4. Ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali aniqlash va natijalarini tahlil qilish.
5. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarning interaktiv metodlardan foydalangan holda darslik bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va mustahkamlash.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini izchil rivojlantirish, xususan, ularni zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy darsliklar nafaqat matnli materiallar, balki interaktiv topshiriqlar, multimedia resurslar hamda raqamli ilovalar bilan boyitilgan bo'lib, ulardan samarali foydalanish o'qituvchidan puxta metodik tayyorgarlikni talab etadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklar bilan ishlashga o'rgatishda interaktiv metodlar alohida o'rin egallaydi. Ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, o'qituvchini tayyorlash jarayoni faol, amaliy va refleksiv xarakterga ega bo'lishi zarur. Jumladan, L. Shulman tomonidan ilgari surilgan pedagogik kontent bilimlari konsepsiyasida o'qituvchining o'quv materialini o'quvchining yosh va individual xususiyatlariga moslashtirish olish kompetensiyasi muhim omil sifatida e'tirof etiladi ^[1]. Mazkur yondashuv darslik mazmunini chuqur tahlil qilish va uni interaktiv metodlar asosida qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi.

Interaktiv metodlar asosida o'qituvchilarga darslikdan foydalanish quyidagi yo'nalishlarda tashkil etiladi:

1. **Keys-stadi (muammoli vaziyat) metodi** – darslikdagi mavzular asosida real pedagogik vaziyatlar ishlab chiqilib, ular o'qituvchilar tomonidan tahlil qilinadi va samarali yechimlar ishlab chiqiladi.
2. **Rol o'ynash (rolli o'yinlar)** – darslikdagi topshiriqlarni o'quvchi rolida bajarish orqali metodik yondashuvning mazmuni va ahamiyati chuqurroq anglanadi.
3. **Loyiha metodi** – zamonaviy darslikdagi mavzularni multimedia hamda qo'shimcha resurslar bilan boyitgan holda mini-loyihalar ishlab chiqish orqali amaliy tajriba shakllantiriladi.
4. **Guruhli hamkorlik (cooperative learning)** – hamkorlikda o'rganish jarayonida o'qituvchilarning metodik qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi. S. Kagan ta'kidlaganidek, hamkorlikda o'qitish modeli o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi ^[2].

Raqamli resurslar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda esa P. Mishra va M. Koehler tomonidan asoslangan TPACK modeli alohida ahamiyat kasb etadi ^[3]. Mazkur model o'qituvchiga darslik mazmuni, pedagogik metod va texnologiyalarni o'zaro integratsiyalash asosida qo'llash imkonini beradi. Natijada ta'lim jarayonining sifati va samaradorligi izchil ta'minlanadi.



Mahalliy tadqiqotchilar ham boshlang'ich ta'lim jarayonida darslik bilan ishlash malakasini shakllantirishda amaliy va interaktiv yondashuvning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Xususan, o'qituvchini darslikni tahlil qilishga, topshiriqlarni modifikatsiya qilishga hamda ularni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirishga o'rgatish interaktiv mashg'ulotlar orqali samarali amalga oshirilishi ilmiy asoslangan ^[4].

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishda interaktiv metodlar nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va refleksiv tajribani rivojlantirishning muhim pedagogik vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Interaktiv mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchilar darslik mazmunini chuqur tahlil qilish, topshiriqlarni modifikatsiya qilish, multimedia resurslarni integratsiyalash hamda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirish ko'nikmalarini izchil egallaydilar.

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati zamonaviy darsliklarning mazmuni yoki ularning texnologik imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini interaktiv metodlar asosida zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishning tizimli va bosqichma-bosqich modeli yetarlicha kompleks yoritilmagan. Bu holat mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Shu bois, tadqiqotda o'qituvchini zamonaviy darslik bilan ishlashga tayyorlash jarayonini interaktiv metodlar asosida tashkil etishga qaratilgan integrativ modelni ishlab chiqish maqsad qilib qo'yildi. Mazkur model o'qituvchining metodik, raqamli va refleksiv tayyorgarligini o'zaro uyg'unlikda rivojlantirishni nazarda tutadi hamda quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. **Nazariy bosqich** – zamonaviy darsliklarning didaktik xususiyatlari va interaktiv imkoniyatlarini o'rganish.
2. **Amaliy bosqich** – interaktiv metodlar (keys-stadi, rolli o'yin, loyiha metodi, guruhli hamkorlik) asosida darslik bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.
3. **Refleksiv-innovatsion bosqich** – o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, darslik materiallarini ijodiy qayta ishlash hamda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish.

Mavzuning o'ziga xosligi shundaki, unda zamonaviy darsliklardan foydalanish kompetensiyasi o'qituvchining interaktiv faoliyati bilan bevosita bog'liq holda talqin etiladi hamda u nazariy, amaliy va refleksiv jarayonlarning integratsiyasi asosida kompleks ravishda tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatish masalasi pedagogika fanida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalarda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, ayniqsa, metodik va pedagogik bilimlar integratsiyasi alohida ta'kidlanadi. L. Shulman tomonidan ilgari surilgan pedagogik kontent bilimlari (PCK) konsepsiyasiga ko'ra, o'qituvchi nafaqat fan mazmunini, balki uni o'quvchiga mos metodlar orqali yetkazish yo'llarini ham chuqur bilishi zarur. Bu yondashuv zamonaviy darsliklar bilan ishlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Interaktiv ta'lim metodlari bo'yicha tadqiqotlarda hamkorlikda o'qitish, muammoli vaziyatlar va loyiha metodining samaradorligi ilmiy asoslangan. S. Kagan hamkorlikda o'qitish modeli orqali ta'lim jarayonida faollik va o'zaro muloqot kuchayishini ko'rsatadi. P. Mishra va M. Koehlnerning TPACK modeli esa darslik mazmuni, pedagogik metod va texnologiyalar integratsiyasining zarurligini asoslaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy darsliklardan samarali foydalanish o'qituvchining metodik va raqamli kompetensiyalarini uyg'un rivojlantirishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv hamda integrativ pedagogik yondashuv tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishda interaktiv metodlarning nazariy va amaliy asoslari tizimli va izchil ravishda tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik tamoyillari

1. **Tizimlilik tamoyili** – o'qituvchining darslik bilan ishlash kompetensiyasi metodik, raqamli va refleksiv komponentlarning o'zaro uzviy birligi asosida ko'rib chiqildi.
2. **Faoliyatga yo'naltirilganlik tamoyili** – o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni interaktiv mashg'ulotlar asosida tashkil etilib, nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirildi.



3. **Kompetensiyaviy yondashuv** – zamonaviy darslikdan foydalanish o'qituvchining amaliy ko'nikmasi va kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilindi.
4. **Refleksivlik tamoyili** – o'qituvchilarning o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish mexanizmlari ishlab chiqildi hamda amaliyotga tatbiq etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yangi avlod darsliklaridan foydalanish o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Mazkur darsliklar nafaqat bilim berish funksiyasini bajaradi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tafakkuri hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot tahlillari asosida o'qituvchilarni yangi avlod darsliklaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan metodik va raqamli treninglarni tizimli ravishda joriy etish maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda, kompetensiyaviy yondashuv hamda interfaol metodlarni o'zaro integratsiyalash o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishga, dars jarayonini samarali tashkil etishga va o'quvchilarning ta'lim sifatini izchil yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish, ularning metodik va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga interaktiv metodlar asosida o'rgatish ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Interaktiv treninglar jarayonida o'qituvchilarda darslik mazmunini tahlil qilish, topshiriqlarni modifikatsiya qilish, multimedia resurslarni integratsiyalash hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos metodik qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllandi va mustahkamlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy darsliklar faqat bilim manbai sifatida emas, balki interaktiv topshiriqlar va raqamli resurslar vositasida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirish imkonini beruvchi kompleks didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish esa o'qituvchining metodik va raqamli tayyorgarligi darajasi bilan uzviy bog'liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishda interaktiv metodlarga tayangan maxsus metodik va raqamli trening dasturlarini joriy etishning dolzarbligi ilmiy jihatdan asoslandi. Xalqaro tajriba hamda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillarini inobatga olgan holda, keys-stadi, rolli o'yinlar, loyiha metodi va refleksiv tahlil elementlarini o'zaro integratsiyalash o'qituvchilarning kasbiy malakasini izchil rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Interaktiv yondashuv asosida tashkil etilgan tayyorlov jarayoni darslarni samarali rejalashtirish, zamonaviy darsliklarning interaktiv imkoniyatlaridan to'liq va maqsadli foydalanish hamda o'quvchilarning ta'lim sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tajriba-sinov natijalari orqali tasdiqlandi.

Mazkur tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirishda, metodik, raqamli hamda refleksiv kompetensiyalarni uyg'un rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shulman, L. S. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching // Educational Researcher. – 1986. – Vol. 15. – No. 2. – P. 4–14.
2. Kagan, S. Komandnyy podkhod k obucheniyu v obrazovanii [Ta'limda jamoaviy yondashuv]. – San Juan Capistrano, California. – 1994.
3. Mishra, P., Koehler, M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108. – No. 6. – P. 1017–1054.
4. Salayeva, M. S., Toychiyeva, S. M. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy mobilligini shakllantirish // Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2023. – № 7(7). – B. 92–95.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.